


## XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

### Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1 iyul holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbi-lar-monlik muhitini yaratish va tadbir-korlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchi-likda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib

### Korxona va tashkilotlar soni (2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	38 534 111,6 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	30 572 95,2%
Yangi tashkil etilgan korxonalar (2023- yilda)	3 210 127,9 %

#### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Mas'uliyati  
cheklangan jamiyat**

4 015



**Oilaviy korxona**

130



**Unitar korxona**

4 347



**Xususiy korxona**

39




**Aksiyadorlik jamiyati**

196




**Boshqa korxonalar**

*mas'uliyati cheklangan jamiyat,  
ming birlik*




*xususiy korxona,  
ming birlik*



**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**


### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 iyul holatiga ko'ra)




### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Aksiyadorlik jamiyati:**

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(yanvar-iyun oylarida, ming birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**  
(2023 yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)





2023 yilning yanvar-iyun oylarida 3210 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 2521 ta, xususiy korxonalar 288 ta, oilaviy korxonalar 313 ta va boshqalar 88 tani tashkil etdi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan  
korxona va tashkilotlar tarkibi**  
(1 iyul holatiga ko'ra)



2022 y



2023 y.




### Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 4210 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,9% ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 85,8% ga (jami sanoatdagi ulushi 94,2%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 82,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,0%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 105,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 93,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,3%) o'sishidir.

### Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2591 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,5 foizni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan 82,6 foizga (jami qurilishdagi ulushi 56,2 foiz), fuqarolik ob'ektlarini qurish 126,4 foizga (jami qurilishdagi ulushi 17,0 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 84,9 foizga (jami qurilishdagi ulushi 26,8 foiz) tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


### **Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

*(1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)*

2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 9249 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,5 foizni tashkil etdi. Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 97,5 foizga (jami savdodagi ulushi 63,1 foiz), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 104,7 foizga (jami savdodagi ulushi 26,0 foiz), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 109,8 foizga (jami savdodagi ulushi 10,9 foiz) tashkil etdi.

### **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

*(2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)*




### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

*(2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)*

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2174 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,8 % ga tashkil etdi. Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 89,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 88,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,1%) tashkil etdi.




**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 334 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 foizni tashkil qildi. Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 75,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,7 foiz), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 82,3 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 15,3 foiz), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 114,9 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 16,2 foiz), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar 75,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,9 foiz), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 110,7 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 43,4 foiz), telekommunikatsiya xizmatlarining 97,3 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 21,5 foiz) o'sgan.

### Oilaviy korxonalar soni (1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra 4015 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 301 taga yoki 108,1% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3039 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 308 taga yoki 90,8% ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 313 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 57 taga yoki 122,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra 26174 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3429 taga yoki 115,1 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20797 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 499 ga yoki 2,3 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2521 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 539 taga yoki 127,2 foizga oshgan.



## Korxona va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


**Buxoro viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra 420 tani tashkil etib, ulardan 299 tasi yoki 71,2% faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 76 taga yoki 20,3% ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar  
kesimida soni**  
(2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)


	2019 y.	2020 y.	2022 y.	2023 y.	2023 y.
<b>Jami</b>	<b>223</b>	<b>291</b>	<b>322</b>	<b>375</b>	<b>299</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	20	30	33	18
sanoat	101	124	129	136	112
qurilish	20	28	34	33	24
savdo	39	61	71	102	92
tashish va saqlash	2	6	5	8	9
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18	23	23	25	17
axborot va aloqa	1	1	1	5	5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	6	7	8	5
boshqa turlar	17	22	22	25	17

**Korxona va tashkilotlar  
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>299</b>	<b>165</b>	<b>134</b>
Buxoro shahri	161	75	86
Kogon shahri	12	9	3
<b>tumanlar</b>			
Olot	3	1	2
Buxoro	26	19	7
Vobkent	5	3	2
G'ijduvon	14	9	5
Kogon	26	17	9
Qorako'l	10	6	4
Qorovulbozor	4	2	2
Peshko'	11	4	7
Romitan	15	10	5
Jondor	5	5	-
Shofirkon	7	5	2

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma  
korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 161 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 53,8%), Kogon tumani 26 ta (8,7 %), Peshko' tumani 11 tani (3,7%), Kogon shahar 12 ta (4,0%), Buxoro tumani 26 ta (8,0 %), hamda Jondor tumanlarida 5 tani (1,7%) tashkil etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni**  
(2023 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni**  
(2023 yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)



2023- yilning yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (10,0%), G'ijduvon (17,3%), Buxoro (3,2%), Romitan (3,5%), Peshko' (1,9%), Kogon (4,4%), Jondor (1,0%), Vobkent (8,6%), Shofirkon (2,9%), Qorako'l (18,9%), Olot (17,3%), Qorovulbozor (0,6%) tumanlari va Kogon shahar (10,9%), ulushiga tegishli.

### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashkari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Faoliyati tugatilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqda davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi** – ma'lum bir davr oraliqida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.